

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



# No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 114 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

### Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti  
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....                                                                  | 10  |
| <b>Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li</b>                                                                     |     |
| Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....                                                                                          | 16  |
| <b>Akbarov Bekmurod Miryakubovich</b>                                                                                                            |     |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....                                                  | 22  |
| <b>Norchayev Asatullo Norbo'tayevich</b>                                                                                                         |     |
| Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....                                              | 28  |
| <b>Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich</b>                                                                                      |     |
| Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....                                                                         | 31  |
| <b>Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi</b>                                                                                                          |     |
| O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish<br>elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....                       | 34  |
| <b>Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati<br>va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....                | 40  |
| <b>Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....                                                                                  | 46  |
| <b>Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyeva</b>                                                                            |     |
| O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....                                            | 49  |
| <b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>                                                                                                            |     |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....                                                                    | 54  |
| <b>Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi</b>                                                                                                      |     |
| Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....                                    | 57  |
| <b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>                                                                                                       |     |
| Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....                                                                                                 | 61  |
| <b>Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi</b>                                                                            |     |
| Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....                                                                       | 68  |
| <b>Uralov Olimjon Mahammadjonovich</b>                                                                                                           |     |
| Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....                                               | 72  |
| <b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>                                                                                                              |     |
| Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....                                        | 77  |
| <b>A. I. Raxmatov</b>                                                                                                                            |     |
| Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....                                                                                  | 83  |
| <b>Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>                                                                                                |     |
| Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....                                                           | 88  |
| <b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li</b>                                                                         |     |
| Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....                                                                       | 94  |
| <b>R. I. Pardayev</b>                                                                                                                            |     |
| Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....                                      | 101 |
| <b>Raxmanova Xurinislo Egamovna</b>                                                                                                              |     |
| Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va<br>soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....                           | 104 |
| <b>Rajjaboyeva Dildora Zakirovna</b>                                                                                                             |     |
| Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....                                                                                        | 110 |
| <b>Nilufar Sharipova</b>                                                                                                                         |     |
| Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va<br>boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati..... | 114 |
| <b>Karimov Shamsiddin Akram o'g'li</b>                                                                                                           |     |



|                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....                                                | 122 |
| <b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>                                                                            |     |
| Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....                                              | 127 |
| <b>Davronbek Sharibjonovich Raximov</b>                                                                           |     |
| Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....                                 | 133 |
| <b>Aminov Farrux Farxadovich</b>                                                                                  |     |
| Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....             | 138 |
| <b>G. J. Jumayeva</b>                                                                                             |     |
| Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....   | 141 |
| <b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b>                                                                         |     |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar .....                                    | 146 |
| <b>Nematova Shaxlo Egamberdiyevna</b>                                                                             |     |
| Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....                                        | 149 |
| <b>Xakimov Zohid Norbo'tayevich</b>                                                                               |     |
| Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....                     | 158 |
| <b>Zoirov O'lmas Erkin o'g'li</b>                                                                                 |     |
| Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash .....                   | 164 |
| <b>Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna</b>                                                                           |     |
| Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....                          | 168 |
| <b>Иноятова Камола Фуркатовна</b>                                                                                 |     |
| Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni .....                                               | 172 |
| <b>X. X. Ikramov</b>                                                                                              |     |
| Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari .....             | 176 |
| <b>Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li</b>                                                               |     |
| Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....                    | 182 |
| <b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov</b>                                              |     |
| Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli ..... | 189 |
| <b>Rabimqulov Sherzod Murtozayevich</b>                                                                           |     |
| Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....                        | 193 |
| <b>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</b>                                                                        |     |



# HUDUDIY KAMBAG'ALLIK CHEGARALARINI ANIQLASHNING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

UDK 316.334.2

**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li**

TMCI "Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv" kafedrası katta o'qituvchisi

**Alisher Yunusaliyevich Safarov**

I.f.f.d., TMCI "Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv" kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada hududlar kesimida kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati va dolzarbligi Qashqadaryo viloyati misolida mintaqaviy sharoitlarga moslashtirilgan kambag'allikning aniq chegaralarini belgilash muhimligiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, mintaqaviy kambag'allik chegaralarini belgilashning horijiy va milliy mezonlarga asosan viloyatning hududiy kambag'allik chegarasi aniqlangan. Bundan tashqari, maqolada milliy mezonga ko'ra hududdagi obyektiv kambag'allik darajasi ham aniqlangan va mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kambag'allikning hududiy mezonini aniqlash bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, kambag'allikni kisqartirish, kam ta'minlanganlik, turmush darajasi, aholi daromadlari, kambag'allik darajasi, kambag'allik chegarasi, hududiy kambag'allik chegarasi.

**Abstract:** The article focuses on the importance and relevance of determining poverty limits by region, using the example of the Kashkadarya region, and the importance of determining specific poverty limits adapted to regional conditions. Also, the regional poverty line of the region was determined on the basis of foreign and national criteria for determining the regional poverty line. In addition, the article also determines the level of objective poverty in the region according to national criteria and, taking into account the characteristics of the region, the following proposals and recommendations for determining the regional poverty criterion are developed.

**Key words:** poverty, poverty reduction, poverty, standard of living, population income, poverty level, poverty line, regional poverty line.

**Аннотация:** В статье акцентируется внимание на важности и актуальности определения лимита бедности в разрезе регионов, на примере Кашкадарьинской области, на важности определения конкретных лимитов бедности, адаптированных к региональным условиям. Также региональная черта бедности региона была определена на основе зарубежных и национальных критериев определения региональной черты бедности. Кроме того, в статье также определен уровень объективной бедности в регионе по национальному критерию и с учетом особенностей региона разработаны следующие предложения и рекомендации по определению регионального критерия бедности.

**Ключевые слова:** бедность, сокращение бедности, бедность, уровень жизни, доходы населения, уровень бедности, черта бедности, региональная черта бедности.

## KIRISH

Ma'lumki, bir mamlakat ichida yoki mamlakatlar bo'ylab turli hududlarda yashash xarajatlari, aholi daromadlari, turmush darajasi va iqtisodiy sharoitlari notekis taqsimlangan. Bundan tashqari, tabiiy-iqlim sharoiti, geografik joylashuv, resurslar bilan ta'minlanish jihatidan ham ma'lum bir mamlakat ichidagi hududlar bir biridan farqlanadi. Shunday ekan, hududlarning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda har bir hududda hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlash juda muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish



to'g'risida<sup>1</sup>gi 544-son qarorida manimal iste'mol xarajatlari miqdori mamlakat bo'yicha kambag'allik chegarasi bo'lib xizmat qilishi belgilangan. Biroq, bu belgilangan chegarada hududiy tafovutlar haqida to'xtalib o'tilmagan.

Dunyo miqyosida hududiy kambag'allik chegaralaridan foydalanish amaliyotiga ega bo'lgan qator mamlakatlar mavjud. Misol uchun, AQSHda kambag'allik chegarasi milliy darajada AQSH Sog'liqni saqlash va aholiga xizmat ko'rsatish departamenti tomonidan belgilanadi, ammo yashash narxining o'zgarishi sababli mintaqaga qarab turli chegaralar qo'llaniladi. Braziliyada ham mamlakat bo'ylab yashash narxidagi farqlarni hisobga olish uchun mintaqaviy kambag'allik chegaralaridan foydalanadi. Hindistondagi kambag'allik chegarasi yashash narxining mintaqaviy o'zgarishini hisobga olgan holda shahar va qishloq joylari uchun alohida belgilanadi. Ushbu amaliyotdan foydalanayotgan mamlakatlar qatoriga Xitoy, Meksika, Janubiy Afrika kabi mamlakatlarni ham qo'shish mumkin.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy kambag'allik chegarasini aniqlash muayyan geografik hududlarda daromad taqsimoti, turmush darajasi va kambag'allik darajasini o'rganuvchi turli tadqiqotchilar va iqtisodchilarning ishini o'z ichiga oladi. Ushbu sohada L. Morris, Sh. Devarajan, R. Gómez kabi taniqli tadqiqotchilar qator ilmiy tadqiqotlari o'rganib chiqildi.

Mintaqaviy kambag'allik chegaralarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri taniqli iqtisodchi va kambag'allik va rivojlanish iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotchi Martin Ravalliondir. U kambag'allikni o'lchash bo'yicha ko'plab maqolalar va kitoblarni nashr etgan hamda mintaqaviy darajada kambag'allik chegaralarini belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan<sup>2</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishining asosiy ko'rsatkichlari mualliflar tadqiqotlari mobaynida 2022-yilning iyun-avgust oylarida Qashqadaryo viloyatida o'tkazgan so'rovnoma natijalari asosida shakllantirilgan ko'rsatkichlar orqali hududiy kambag'allik chegarasi ikki usulda Qashqadaryo viloyati misolida aniqlangan. Birinchi usul, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"<sup>3</sup>gi 544-son qaroriga asosan Qashqadaryo viloyatining hududiy minimal iste'mol xarajatlari aniqlangan. Ikkinchi usul, viloyatdagi nisbiy kambag'allik chegarasini aniqlash va mavjud metodologiya bilan qiyoslashda YEVROSTAT<sup>4</sup> metodologiyasi orqali hududiy nisbiy kambag'allik chegarasi aniqlangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bevosita so'rovnoma o'tkazilgan tumanlardagi aholi daromadlarini sarflanishiga ko'ra obyektiv kambag'allik darajasini aniqlash mumkin. Bunda asosiy mezon sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad (xarajat) dan foydalanilgan. Ma'lum bo'lishicha, viloyatdagi istiqomat qiluvchi aholi daromadlarining o'rtacha 70,4% qismi asosan oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish uchun sarflanadi. Tumanlar kesimida ham o'zaro bu ko'rsatkich bo'yicha sezilarli darajada katta tafavut kuzatilmagan. Noozik ovkat-tovarlarga esa o'rtacha 19,8 foiz xarajat qilinganligi ma'lum bo'lsa, bevosita xizmatlarga 9,7 foiz mablag'ni sarflaganligi aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval:** Qashqadaryo viloyatida o'y xo'jaliklari daromadlarining asosiy sarfi (Qashqadaryo viloyati uy xo'jaliklarida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari, iyul'-avgust 2022-yil)<sup>5</sup>

| №  | Tumanlar | Oylik xarajatlar tarkibi (foizda) |              |                         |             | O'rtacha oylik xarajat miqdori (ming so'mda) |
|----|----------|-----------------------------------|--------------|-------------------------|-------------|----------------------------------------------|
|    |          | Jami                              | Oziq-ovqatga | Nooziq-ovqat tovarlarga | Xizmatlarga |                                              |
| 1. | G'uzor   | 100                               | 69,5         | 19,3                    | 11,2        | 805                                          |
| 2. | Qamashi  | 100                               | 70,3         | 20                      | 9,7         | 633                                          |
| 3. | Koson    | 100                               | 72,4         | 18,8                    | 8,8         | 536                                          |

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-son qarori.URL: <https://lex.uz/ru/docs/5606697>

2 Ravallion, Martin. "On the Measurement of Poverty." The Economic Journal, vol. 112, no. 476, 2002, pp. F671-F684. doi:10.1111/1468-0297.00029

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-son qarori.URL: <https://lex.uz/ru/docs/5606697>

4 Poverty and its measurement the presentation of a range of methods to obtain measures of poverty. URL: [https://www.ine.es/en/daco/daco42/sociales/pobreza\\_en.pdf](https://www.ine.es/en/daco/daco42/sociales/pobreza_en.pdf)

5 So'rovnoma natijalariga asosan muallif ishlanmasi.



|                       |                |            |              |              |             |              |
|-----------------------|----------------|------------|--------------|--------------|-------------|--------------|
| 4.                    | Kitob          | 100        | 69,6         | 20,3         | 10,1        | 544          |
| 5.                    | Mirishkor      | 100        | 71,2         | 20,4         | 8,4         | 679          |
| 6.                    | Nishon         | 100        | 71,7         | 19,1         | 9,2         | 974          |
| 7.                    | Kasbi          | 100        | 68,1         | 21,3         | 10,6        | 663          |
| 8.                    | Chiroqchi      | 100        | 71,1         | 20           | 8,9         | 672          |
| 9.                    | Yakkabog'      | 100        | 71,2         | 17,8         | 11          | 638          |
| 10.                   | Shahrisabz sh. | 100        | 69,1         | 21,2         | 9,7         | 709          |
| <b>Jami o'rtacha:</b> |                | <b>100</b> | <b>70,42</b> | <b>19,82</b> | <b>9,76</b> | <b>685,3</b> |

Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotimizda aynan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol xarajatlari ko'rsatkichi tanlandi va hududdagi aholi jon boshiga o'rtacha oylik xarajat 685300 so'mni tashkil etdi. Tumanlar kesimida eng past ko'rsatkich Koson tumani kuzatildi. Qolgan tumanlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol xarajatlari miqdori so'rovnoma o'tkazilgan manzillarning shahar yoki qishloq tipida joylashganligiga qarab iste'mol xususiyatiga ko'ra farq qilishi aniqlandi. Eng yuqori xarajatga ega aholi Nishon tumanida istiqomat qilishi ma'lum bo'ldi. So'rovnoma o'tkazilgan manzil tuman markazidan uzoq bo'lganligi tufayli aholi xarajatlarning tarkibida asosan yo'l xarajatlari katta miqdorni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan hududiy kambag'allik chegarasini va tumanlar kesimida kambag'allik chegarasini aniqlash maqsadida ikki hil metodologiyadan foydalanildi. Birinchisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi<sup>6</sup> 544-son qaroriga asosan quyidagi ketma-ketlikda aniqlandi.

Birinchi bosqich: uy xo'jaliklarining aholi jon boshiga iste'mol hajmidan kelib chiqib, o'sish tartibida detsillarga (10 foizlik guruh) bo'linadi va eng kam iste'molga ega bo'lgan birinchi uch guruhdagi uy xo'jaliklari (target guruh) ajratib olinadi. Tumanlar kesimida eng kam iste'molga ega bo'lgan birinchi uch guruhdagi uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari quyidagicha taqsimlangan (2-jadval).

**2-jadval: Qashqadaryo viloyatida eng kam iste'molga ega bo'lgan birinchi uch guruhdagi uy xo'jaliklari (target guruh) xarajatlari (ming so'mda)<sup>7</sup>**

| Detsillar                                    | Tumanlar |         |       |       |           |        |       |           |           |                   |
|----------------------------------------------|----------|---------|-------|-------|-----------|--------|-------|-----------|-----------|-------------------|
|                                              | G'uzoz   | Qamashi | Koson | Kitob | Mirishkor | Nishon | Kasbi | Chiroqchi | Yakkabog' | Shahrisabz shahri |
| I guruh                                      | 408      | 398     | 436   | 413   | 405       | 395    | 412   | 380       | 391       | 406               |
| II guruh                                     | 420      | 404     | 444   | 425   | 422       | 432    | 421   | 451       | 415       | 467               |
| III guruh                                    | 426      | 413     | 455   | 437   | 445       | 463    | 457   | 501       | 442       | 549               |
| Target guruhining o'rtacha oylik xarajatlari | 418      | 405     | 445   | 425   | 424       | 430    | 430   | 444       | 416       | 474               |

Ikkinchi bosqich: uy xo'jaligining o'rtacha oylik jon boshiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlarning umumiy xarajatlardagi ulushini aniqlash orqali har bir uy xo'jaligining Engel koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$Eng_t = \frac{OX_t^j}{JI_t^j} \times 100 \%$$

bunda

**Eng<sub>t</sub>** – Engel koeffitsiyenti;

**OX<sub>t</sub><sup>j</sup>** – t uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami oziq-ovqat xarajatlari qiymati;

**JI<sub>t</sub><sup>j</sup>** – t uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami xarajatlari qiymati.

6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-son qarori.URL: <https://lex.uz/ru/docs/5606697>

7 So'rovnoma natijalariga asosan shakllantirilgan.



So'rovnoma natijalariga asosan, viloyatdagi uy xo'jaliklarining o'rtacha oylik jon boshiga oziq-ovqat xarajatlari 303000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, aholi jon boshiga jami xarajatlar 431000 so'mni tashkil etgan. Demak, Engel koeffitsiyentining qiymati

$$Eng_t = \frac{303000}{431000} \times 100 \% = 70,4 \% \text{ ga teng.}$$

Uchinchi bosqich: Minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymatini Engel koeffitsiyentining o'rtacha miqdoriga bo'lish orqali bir kishi uchun o'rtacha oylik minimal xarajatlar qiymati aniqlanadi.

$$MX = \frac{MOX}{Eng} \times 100 \%$$

bunda:

MX – minimal iste'mol xarajatlari;

MOX – minimal oziq-ovqat xarajatlari;

Eng – Engel koeffitsiyenti

Qashqadaryo viloyati aholisining minimal iste'mol xarajatlari quyidagicha aniqlanadi.

$$MX = \frac{303000}{70,4} \times 100 \% = 431000$$

Demak, 431 ming so'm Qashqadaryo viloyatida 2022-yil uchun kambag'allik chegarasi ekanligi aniqlandi.

Viloyatdagi nisbiy kambag'allik chegarasini aniqlash va mavjud metodologiya bilan qiyoslashda YEV-ROSTAT metodologiyasi tanlab olindi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, hududdagi kambag'allik chegarasini aniqlashda har bir tuman(shaxar) aholisini o'rtacha kunlik xarajatlarini eng kamdan eng ko'piga qarab ketma ketlikda joylashtirib olindi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan, Qashqadaryo viloyatidagi eng past oylik xarajat miqdori Qamashi tumaniga 536 ming so'm, eng yuqorisi esa Nishon tumaniga 974 xissaga to'g'ri kelgan bo'lsa, qatorlarni quyidagicha ifodalash mumkin.

| Qatordagi tumanlar:                     | 1   | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  |
|-----------------------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| Oylik xarajatlar miqdori (ming so'mda): | 536 | 544 | 633 | 638 | 663 | 672 | 679 | 709 | 805 | 974 |

Birinchi navbatda ushbu guruhdagi kambag'allik darajasini hisoblash uchun yuqorida aytib o'tganimizdek, taqsimlash medianasini topish kerak bo'ladi. Buning uchun dastlab tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik daromadlarni Sterjess formulasidan foydalangan holda hosil bo'lajak guruhlar sonini aniqlab olamiz.

Demak, Sterjess formulasiga asosan  $k = 1 + 3,32 \lg N$

Bu yerda, k -guruhlar soni, lg – o'nlik logarifm, N - berilgan to'plam birliklari soni.

Bizning ma'lumotlarimizda to'plam birliklari soni 10 ta. Ya'ni:

$$k = 1 + 3,32 \lg 10 = 4,32$$

So'ngra guruhlar oralig'ini aniqlab olamiz. Buning uchun to'plamning eng katta qiymatidan eng kichik qiymatini ayirib, guruhlar soniga bo'lamiz.

$$i = \frac{X_{\max} - X_{\min}}{k} = \frac{974 - 536}{4,32} = 101,3$$

Demak, guruh oraligi 101,3 ming so'mga teng. So'ngra guruhlar ketma ketligini yozib olamiz.

3-jadval: Aholining oylik xarajatlari bo'yicha guruhlar (ming so'mda)

| Guruhlar soni | Aholining oylik xarajatlari bo'yicha guruhlar (ming so'mda) | Tumanlar soni |
|---------------|-------------------------------------------------------------|---------------|
| I.            | 536 - 637,3                                                 | 3             |
| II.           | 637,3-738,6                                                 | 5             |
| III.          | 738,6-839,9                                                 | 1             |
| IV.           | 839,9-941,2                                                 | 0             |
| V.            | 941,2 va undan yuqori                                       | 1             |



Intervalli variatsion qatorlar uchun mediana quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$Me = x_{me} + i_{me} \frac{\frac{\sum f}{2} - S_{me-1}}{f_{me}},$$

bu yerda:

$x_{me}$  – mediana intervalining boshlang'ich qiymati;

$i_{me}$  – mediana intervalining miqdori;

$\sum f$  – chastotalar yig'indisi;

$S_{me-1}$  – mediana intervaligacha bo'lgan chastotalar yig'indisi;

$f_{me}$  – mediana intervalining chastotasi. Yuqoridagi misolimiz ma'lumotlari (3-jadval) asosida medianani hisoblaymiz.

3-jadvalga asosan  $x_{me}$  -633 (ming so'm),  $i_{me}$  – 101,3 (ming so'm),  $\sum f$  – 10,  $f_{me}$  – 1,  $S_{me-1}$  -8 ga teng.

$$Me = 633 + 101,3 (10/2)/8 = 696,3 \text{ ming so'm}$$

Demak, guruhning medianasi 696,3 ming so'mni tashkil etadi va YEVROSTAT talqiniga ko'ra 60 foizlik mezon bo'yicha qarasak 0,6 x 696,3 hosil bo'ladi. Ushbu ifodaning qiymati 418 ming so'mni tashkil etadi va ushbu qiymat hududning kambag'allik chegarasi ekanligi ma'lum bo'ladi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, hududda obektiv kambag'allik darajasi ham aniqlangan bo'lib, maskur ko'rsatkich asosiy uch mezonda aniqlangan. Birinchi mezon, nisbatan yuqori daromadga ega aholi qatlami (aholi jon boshiga daromad 2000 ming so'mdan yuqori). Ikkinchi mezon, o'rtacha daromadga ega aholi qatlami (aholi jon boshiga daromad 500 – 2000 ming so'mgacha). Uchinchi mezon, kambag'al aholi qatlami (aholi jon boshiga daromad 500 ming so'mdan past) (4-jadval).

4-jadval: Qashqadaryo viloyatida obektiv kambag'allik darajasini shakllanishi (so'rovnoma natijalari, iyul'-avgust 2022-yil, %)⁸

| Uy xo'jaliklari farovonlik darajasi                                  | Jami  | Shahar va tumanlar |         |       |       |           |        |       |           |           |                |
|----------------------------------------------------------------------|-------|--------------------|---------|-------|-------|-----------|--------|-------|-----------|-----------|----------------|
|                                                                      |       | G'uzor             | Qamashi | Koson | Kitob | Mirishkor | Nishon | Kasbi | Chiroqchi | Yakkabog' | Shahrisabz sh. |
|                                                                      |       | 100                | 100     | 100   | 100   | 100       | 100    | 100   | 100       | 100       | 100            |
| Nisbatan yuqori (aholi jon boshiga daromad 2000 ming so'mdan yuqori) | 73,97 | 10,3               | 9,1     | 6,7   | 6,1   | 10,1      | 8,8    | 7,8   | 10,1      | 8,0       | 5,7            |
| O'rtacha (aholi jon boshiga daromad 500 – 2000 ming so'mgacha)       | 8,27  | 77,3               | 66,8    | 73,6  | 71,6  | 70,5      | 84,9   | 75,3  | 72,8      | 72,2      | 74,7           |
| Kambag'al (aholi jon boshiga daromad 500 ming so'mdan past)          | 17,76 | 12,4               | 24,1    | 19,7  | 22,3  | 19,4      | 6,3    | 16,9  | 17,1      | 19,8      | 19,6           |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asosan mintaqadagi obektiv kambag'allik darajasi 17,6 foizni tashkil etgan holda Statistika agentligi tomonidan aniqlangan darajadan 0,3 punkga pastroq. Shuningdek, mintaqadagi eng yuqori bo'lgan kambag'allik darajasi Qamashi tumani ekanligi aniqlandi. Eng yaxshi ko'rsatkich Nishon tumanida bo'lib, ushbu tumanda yashovchi aholining 6,3 foizi aholi jon boshiga daromadlar 500 ming so'mdan pastligi ma'lum bo'lgan.

Tumanlar kesimida kambag'allik darajasi ham Vazirlar Mahkamasining 544-son qarorida ko'rsatilgan metodologiya asosida aniqlangan bo'lib, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning eng kam daromadga ega 30 foizi detsillarga ajratilib umumiy xarajatlar miqdori aniqlangan. Quyidagi jadvalda viloyatning tumanlari kesimida subyektiv, obektiv kambag'allik darajalari va aniqlangan kambag'allik chegaralari o'z ifodasini topgan (5-jadval).

8 So'rovnoma natijalariga asosan aniqlangan.



**5-jadval:** Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida subyektiv, obyektiv kambag'allik darajalari va kambag'allik chegaralari ko'rsatkichlari (so'rovnoma natijalari, iyul'-avgust 2022-yil, %)<sup>9</sup>

| №   | Tumanlar                           | Subyektiv kambag'allik darajasi (%) | Obyektiv kambag'allik darajasi (%) | Kambag'allik chegarasi (ming so'mda) |
|-----|------------------------------------|-------------------------------------|------------------------------------|--------------------------------------|
| 1.  | G'uzor                             | 14,7                                | 12,4                               | 418                                  |
| 2.  | Qamashi                            | 26,1                                | 24,1                               | 405                                  |
| 3.  | Koson                              | 21,3                                | 19,7                               | 445                                  |
| 4.  | Kitob                              | 23,3                                | 22,3                               | 425                                  |
| 5.  | Mirishkor                          | 20,7                                | 19,4                               | 424                                  |
| 6.  | Nishon                             | 7,8                                 | 6,3                                | 430                                  |
| 7.  | Kasbi                              | 18                                  | 16,9                               | 430                                  |
| 8.  | Chiroqchi                          | 18,4                                | 17,1                               | 444                                  |
| 9.  | Yakkabog'                          | 21,3                                | 19,8                               | 416                                  |
| 10. | Shahrisabz sh                      | 21                                  | 19,6                               | 474                                  |
|     | <b>Mintaqaviy o'rtacha qiymat:</b> | <b>19,2</b>                         | <b>17,6</b>                        | <b>431</b>                           |

Xalqaro miqyosda kambag'allik yoki kambag'allikni chegarasini belgilashda turlicha (ya'ni har bir davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda) usullardan foydalaniladi. Biroq, hech bir usul qaysidir mamlakat uchun kambag'allik darajasini aniqlashda ideal bo'lishi qiyin. Sababi, har bir mamlakatda ushbu holatga ta'sir etuvchi xususiy hollar bo'lishi mumkin. Aynan shu jihatni hududlar miqyosida ham ko'rish mumkin. Ya'ni respublikamizning har bir hududi o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy va albatta xususiy jihatlarga ega. Har bir hududning o'ziga xos mintaliteti, turmush tarzi, urf-odati va iste'mol xususiyati mavjud. Shunday ekan, har bir viloyatning o'ziga xos xususiyatlar va turmush tarzidan kelib chiqib hududiy kambag'allik chegarasini aniqlash maqsadga muvofiq.

Kambag'allik chegarasini belgilashdan ko'zlangan maqsad aholining to'laqonli hayot kechirish darajasini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan resurslarning qiymatini aks ettirishdir. Ya'ni, insonga asosiy ehtiyojlar nuqtayi nazaridan minimal qoniqish darajasiga erishishga imkon beradigan zaruriy mahsulotlar (tovar va xizmatlar) savatini sotib olish bilan bog'liq xarajatlarni o'lchashdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy va O'zbekiston tajribasining ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda hamda mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kambag'allikning hududiy mezonini aniqlash bo'yicha quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

- hududda nisbiy kambag'allik chegarasini aniqlash uchun tanlab sotsiologik so'rov o'tkazishni tizimli yo'lga qo'yish lozim. Ushbu usul xalqaro miqyosda keng qo'llanilgan va xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish zarur.
- milliy mezondan sezilarli farq qilmaydigan minimal iste'mol xarajatlarining hududiy mezonini belgilash zarur. Bunga uch yil davomida mezon qiymatini bosqichma-bosqich 100 foizga oshirish va rasmiy ravishda eng kam ish haqiga moslashtirish orqali erishish mumkin.
- haqiqiy minimal iste'mol xarajatlarini aniqlash uchun barcha jamoalardagi kam ta'minlangan oilalar uchun maxsus ishlab chiqilgan so'rov o'tkazish kerak. Ushbu tadqiqot hududning o'ziga xos xususiyatlarini va kambag'allikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ko'rib chiqishi kerak.
- mintaqaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iste'mol savatchasi va asosiy ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan minimal sof daromadlar darajasini aniqlash lozim.
- an'anaviy moliya institutlaridan foydalana olmaydigan kam ta'minlangan shaxslar va uy xo'jaliklariga kichik kreditlar, jamg'armalar, sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun mikromoliyalash mexanizmini joriy etish kerak. Ushbu mexanizm iqtisodiy jihatdan chekkada qolganlarni qo'llab-quvvatlash orqali mintaqada kambag'allikni kamaytirishda samarali bo'lishi mumkin.

9 So'rovnoma natijalariga asosan aniqlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544-son qarori.URL: <https://lex.uz/ru/docs/5606697>
2. Ravallion, Martin. "On the Measurement of Poverty." The Economic Journal, vol. 112, no. 476, 2002, pp. F671-F684. doi:10.1111/1468-0297.00029
3. Poverty and its measurement the presentation of a range of methods to obtain measures of poverty. URL: [https://www.ine.es/en/daco/daco42/sociales/pobreza\\_en.pdf](https://www.ine.es/en/daco/daco42/sociales/pobreza_en.pdf)
4. Poverty and its measurement the presentation of a range of methods to obtain measures of poverty. URL: [https://www.ine.es/en/daco/daco42/sociales/pobreza\\_en.pdf](https://www.ine.es/en/daco/daco42/sociales/pobreza_en.pdf)
5. N.M.Soatov, N.G'.Nabiyev, D.N. Nabiyev, G.N. Tillaxo'jayev. Statistika.Darslik. Toshkent-2011.110 bet

**Elektron resurslar:**

6. <https://norma.uz>
7. <https://lex.uz/ru>
8. <https://stat.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.